

**N.ALIMOVA, X.JURAYEV**

**G.SUYARKULOVA**

**FARG‘ONA VILOYATIDA YENGIL  
SANOAT KORXONALARI  
FAOLIYATI TARIXI  
(1946-1991 YILLAR)**



**FARG‘ONA – 2022**

**N.Alimova, X.Jurayev, G.Suyarkulova**

**Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalari faoliyati tarixi  
(1946-1991 yillar). – Farg‘ona, 2022. – 84 b.**

Monografiyada sovet hokimiyati yillarda Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalarining boshqaruv tizimi, faoliyati tarixi yoritilgan. Shuningdek, yengil sanoat korxonalarining moddiy-texnik ahvoli, kadrlar tizimi, ishchi-xizmatchilarining ahvoli, mutaxassislar bilan ta’minlashi kabi muammolari ilmiy asosda tahlil etilgan.

Monografiya tarix mutaxassisiligi magistrлари va tarix ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar, doktorantlar hamda Vatan tarixiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrirlar:**

**A.Sharafiddinov** - tarix fanlari nomzodi, dotsent

**S.Yo‘ldoshev** - tarix fanlari falsafa doktori

**Taqrizchilar:**

**O.Kamilov**

Tarix fanlari doktori, professor

**X. Juraev**

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Monografiya Farg‘ona davlat universiteti Ilmiy Kengashi tomonidan 2022 yil \_\_ oktabrida nashrga tavsiya etilgan. (\_\_-sonli majlis bayoni)

## **Mundarija:**

<b>So‘zboshi .....</b>	<b>7</b>
<b>I bob. Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalarining vujudga kelishi va boshqaruv tizimi .....</b>	<b>16</b>
1.1. Sovet hokimiyati yillarida yengil sanoat korxonalarining vujudga kelishi .....	16
1.2. Yengil sanoat korxonalari boshqaruv tizimi.....	30
<b>II bob. Farg‘ona viloyatid.a yengil sanoat korxonalari moddiy texnik ahvoli va kadrlar tizimi.....</b>	<b>39</b>
2.1. Yengil sanoat korxonalarining moddiy-texnik ahvoli.....	39
2.2. Yengil sanoat korxonalarida kadrlar tizimi.....	50
<b>III bob. Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalari faoliyati va ishchilarining moddiy ta’minoti.....</b>	<b>62</b>
3.1. Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalari faoliyati.....	62
3.2. Yengil sanoat korxonalari ishchi-xizmatchilarining moddiy ahvoli.....	73
<b>Xulosa.....</b>	<b>79</b>
<b>Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>82</b>

## **So‘zboshi**

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda sanoat sohasining ustuvorligi tufayli tarmoqni taraqqiy ettirish hamda modernizatsiya qilish, unga doir ishlab chiqarish muhitini yanada shakllantirish va eksportbop mahsulotlar yaratishni yo‘lga qo‘yish talab qilinmoqda. Bu borada, ayniqsa Juhon savdo tashkiloti (WTO) barcha hududlarda xalqaro savdoni liberallashtirish, sanoat korxonalarini, tarmoqlarini baravar rivojlantirish jarayonlariga muhim e’tibor qaratib kelmoqda. Shubhasiz, ushbu sa’y-harakatlar ayni paytda iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan aksariyat davlatlarda yengil sanoat sohasi uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini taqozo etmoqda.

Jahonning qator ilmiy-tadqiqot muassasalarida, markazlarida rivojlangan davlatlar iqtisodiy hayotining erkinlashtirilishi, yengil sanoat korxonalarini faoliyatini moliyalashtirilishi hamda unga kapital mablag‘lar sarflash dinamikasi, eksport va import salohiyatining ortib borishi jarayonlarini atroflicha tizimli tahlil qilish, tadqiq qiziqish ortib bormoqda.

O‘zbekistonda istiqlol yillari iqtisodiy o‘sishga muhim ahamiyat qaratilishi natijasida yengil sanoat korxonalarida transformatsiya jarayonlari sodir bo‘ldi. Yengil sanoat korxonalaridagi islohatlar zaminida rivojlangan davlatlar tajribasi asosida yo‘lga qo‘yildi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Mamlakatda 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, ... to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda “yashil iqtisodiyot” bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz “drayverlari”ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud”<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // Янги Ўзбекистон. – 2020 йил. – 30 декабрь.

Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2017 yil 14 dekabrdagi PF-5285-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, hamda 2022 yil 29 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentabrdagi PQ-4453-son “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalarida qayd etilgan aynan sanoat tarmoqlariga taalluqli bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishda monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Monografiya mavzusiga oid tadqiqotlarni uchta guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) Sovet davrida chop etilgan adabiyotlar;
- 2) mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar;
- 2) xorijiy olimlarning mavzuga oid nashrlari.

**Birinchi guruhga** oid sovet davri adabiyotlari tahlil qilinganda juda ko‘plab holatlarda sovet xalq xo‘jaligini maqtashga, erishilgan “yutuqlarni” ko‘rsatishga harakat qilinganligini guvohi bo‘lish mumkin. Biroq, arxiv hujjatlarida iqtisodiy rayonlar tashkil topgan vaqtidan boshlab turli muammolar girdobida bo‘lganligi haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi<sup>2</sup>. Ayni asarlarda yengil sanoat korxonalarning bitta sanoat nuqtasi o‘zaro bir-

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон енгил саноати. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959.; Зименко В., Кириленко В. Марғилон ипаги. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960. – 60 б.; Зиёдуллаев С. Ўзбекистон енгил саноатини ривожлантириш истиқболлари. – Тошкент: Фан, 1972. – 64 б.; Марасулов Ш.Р. Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 36 б.; Раимкулов С. ва б. Енгил саноат - халқ хўжалиги комплексининг муҳим бўгини. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 16 б.; Балтаев Т. Сбалансированность спроса и предложения товаров легкой промышленности. (региональные проблемы). – Ташкент: Фан, 1986; Тухтасинов И., Королев И. Маргиланский шелковый. – Ташкент, 1976. – С.31.; Султанов Н.С. Некоторые вопросы развития и совершенствования структуры промышленности Ферганского экономического района УзССР // Общественные науки в Узбекистане. 1983, №1. - С.32-34.; История Коканд. – Ташкент: Фан, 1984.; Султонов Н. Фарғона иқтисодий райони саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 24 б.;

biri bilan bog‘langan birikma ekanligi, korxonalarini barpo etishda tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini, uning transport hamda iqtisodiy-geografik o‘rnini e’tiborga olib, korxonalarini rejali tanlash va joylashtirish hisobiga barpo etilganliga oid ma’lumotlar berilgan. O‘lkada sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi tarixi mavzusiga doir sovet davrida yaratilgan asarlar ko‘lamni nihoyatda kengdir. O‘lkada sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi tarixi o‘rganishda O.Suhareva, O.Aminov, Z.Axvadjonova kabilarning hissasi salmoqli bo‘lib, mualliflarning ushbu masalaga bag‘ishlangan asar va maqolalarida sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi jarayonlari tarixi to‘g‘risidagi tahliliy fikr-mulohazalari bayon etilgan. Ular tomonidan sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi jarayonlari xususida nihoyatda boy ma’lumotlarni to‘planib, nashr etilgan. XX asrning 50-80 yillarida mavzuga aloqador yaratilgan asarlarda o‘ziga xos yondashuvlarni kuzatish mumkin<sup>3</sup>. Biroq, ayni masalalar Farg‘ona viloyati kesimida, o‘ziga xos jihatlari chuqur tahlil etilmagan. Shuningdek, muammo ko‘p xollarda iqtisodchi mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan.

**Ikkinci guruhg‘a** doir adabiyotlarni mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etib, ularning aksariyatida bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida respublika ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari, sanoat sohasining turlari, korxonalarning iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashga hissa qo‘shganligi masalalariga izoh berilgan. Xusan, istiqlolning dastlabki davri, 1991-1996 yillar mobaynida iqtisodiy sektor va uning negizi bo‘lgan sanoat sohasini rivojlanishi tarixini tahlil qiluvchi tadqiqotlarda asosan sanoat ishlab chiqirishi tarkibiy o‘zgarishlari, sanoat tuzilishi, oziq-ovqat

---

<sup>3</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Т.: Изд-во АН Уз ССР, 1953. – С.62.; Сухарева О. Позднефеодальный город Бухара конца XIX – начала XX века. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1962.; Аминов О. XVI – XX асрларда Ўрта Осиёнинг Россия билан тарихий ва иқтисодий алоқалари. – Тошкент. – 1958.; Асылбеков М.Х. Железнодорожники Казахстана в первой русской революции (1905-1907 гг.). – Алма-Ата: Наука, 1965.; Ахмаджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент: Фан, 1984.; Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960.

hamda yengil sanoat tarmoqlari o'sib borishi jarayonlari aks ettirilgan<sup>4</sup>. Jumladan, T.N.Pardaev, Sh.M.Rahmatullaev, A.E.Kuraxmedov, P.Sh.Xushboqov va E.R.Tillaevlar istiqlol davrida mamlakat viloyatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, mazkur jabhalardagi yuz bergen muhim o'zgarishlar, sanoat ishlab chiqarishi va unga tegishli ko'rsatkichlarni umumlashma tarzda bayon qilganlar<sup>5</sup>.

Mustaqillik sharoitida nashr qilingan fundamental asar va qator tadqiqotlarda respublikada sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan faoliyati, iqtisodiyot va sanoatni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan<sup>6</sup>. Shunigdek, S.G'ulomov, R.Ubaydullaeva, E.Ahmedov va Z.Saydaminovalar tomonidan nashr qilingan izlanishlarda respublikada mustaqillik yillarida sanoat tarmoqlarining rivojlanishi,

<sup>4</sup> Тўхлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти: саволлар ва жавоблар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1991.-175 б; Ўша муаллиф. Ўзбекистон иқтисодиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.-112 б; Ўша муаллиф. Бозорга ўтишнинг машаккатли йўли.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999.-240 б; To'xliyev N., Kremensova A. O'zbekiston Respublikasi: Ensiklopedik ma'lumotnoma. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. -408 б; Uzbekistan in Years of Independence.Economy survey during 1991-1996. –Tashkent: Uzbekistan, 1997.-107 р; Раҳматуллаев Ш.М. Мустақиллик шароитида Фарғона водийси шаҳарларида ижтимоий-иктисодий ўзгаришлар (1991-1996 йй.): Тарих фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 200 б. Турсунов Б.О. Корхоналар фаолиятини бошқаришини такомиллаштиришда ишлаб чиқариш омилларидан самарали фойдаланиш (Тўқимачилик корхоналари ишлаб чиқариш кувватлари мисолида): Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс.автореф. – Тошкент, 2019. – 54 б; Урекова Н.С. Ўзбекистонда мустақиллик даврида саноат соҳасидаги ислоҳотлар ва ўзгаришлар жараёни (Жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фан. ном. ... дисс. – Қарши, 2004. - 187 б; Хушбоқов П.Ш. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиши: муаммо ва зиддиятлар (Самарқанд вилояти мисолида): Тарих фанлари ном. ... дисс. автореф. - Тошкент, 2006. -28 б.

<sup>5</sup> Пардаев Т.Н. Перспективы развития аграрного сектора региона в условиях перехода к рыночной экономике (на примере Навоийской области): Дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1996.–124 с; Раҳматуллаев Ш.М. Мустақиллик шароитида Фарғона водийси шаҳарларида ижтимоий-иктисодий ўзгаришлар (1991-1996 йй.): Тарих фан. ном. ...дисс.–Тошкент, 2000.–200 б; Курхмедов А.Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половины XIX – начала XX вв: Автореф. дисс. ... канд. ист.наук. – Ташкент, 2001.–27 с; Хушбоқов П.Ш. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиши: муаммо ва зиддиятлар (Самарқанд вилояти мисолида): Тарих фанлари ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006.–28 б; Тиллаев Э.Р. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иктисодий ва маданий ҳаётидаги ўзгаришлар (Жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фан. ном. ... дисс. автореф.–Тошкент, 2010.–26 б.

<sup>6</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи.–Тошкент: Шарқ, 2000.–560 б; Ўзбекистон тарихи / Р.Х.Муртазаева умумий таҳрири остида.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.-675 б; Usmonov Q., Sodiqov M., Burganova S. O'zbekiston tarixi. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006.-520 б; Бобобеков Ҳ., Каримов Ш., Содиков М. ва бошқ.Ўзбекистон тарихи.-Тошкент: Фан, 2007. – 471 б. O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob / N. Jo'raev, T. Fayzullayev; –To'ldirilgan, qayta nashr. -Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009.–664 б; Shamsutdinov R., Mo'minov X.O'zbekiston tarixi.-Toshkent: Akademnashr, 2019. -576 б.; Муртазаева Р.Х., Одилов А.А., Ерметов А.А., Саипова К.Д. Ўзбекистон тарихи. –Тошкент, 2020.- 523 б.

to‘qimachilik sanoati uchun yuksak unumli mashinalarga alohida o‘rin ajratilgan<sup>7</sup>.

N.S.Uroqovaning tadqiqotida sanoat sohasida amalga oshirilgan islohotlarning, undagi muhim transformatsiya jarayonlari respublikaning janubiy viloyatlari misolida tahlil qilingan<sup>8</sup>. Shuningdek ushbu mavzuning iqtisodiy jihatlari asosan iqtisodchi-olimlar M.R.Boltaboev, S.Yusupov, B.O.Tursunovlar tomonidan o‘rganilib chiqilgan. Jumladan, ularning izlanishlari asosan yengil sanoat korxonalari faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda ishlab chiqarish omillarining ustuvorligi, rivojlantirish strategiyalari hamda to‘qimachilik sanoatining eksport imkoniyatlarini oshirish muammolariga bag‘ishlangan<sup>9</sup>.

Tarixchi-olimlardan S.R.Rizaev hamda K.Sanakulovlarning tadqiqtolarida mamlakat kon-metallurgiya sohasining rivojlantirilishi ilmiy adabiyotlar yordamida tadqiq qilingan<sup>10</sup>. A.Ortiqovning kitobida xalq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan sanoatning milliy iqtisodiyotdagi roli va o‘rni, tarkibiy muammolar, mahsulot sifati va raqobatbardoshlik, fan-texnika taraqqiyoti, sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish va

---

<sup>7</sup> Gulyamov S., Ubaydullaeva R., Akhmedov E. Independent Uzbekistan.-Tashkent: Mekhnat, 2000. -144 р; Ахмедов Э., Сайдаминова З. Ўзбекистон Республикаси: қисқача маълумотнома.–Тошкент: Ўзбекистон, 2006.-Б.5.

<sup>8</sup> Уроқова Н.С. Ўзбекистонда мустакиллик даврида саноат соҳасидаги ислоҳотлар ва ўзгаришлар жараёни (Жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фан. ном. ... дисс. – Қарши, 2004.–187 б.

<sup>9</sup> Болтабаев М.Р.Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси: Иқтисод. фан. докт. ... дисс. автореф. -Тошкент, 2005.–35 б; Юсупов С. Кучли ракобат шароитида Ўзбекистон тўқимачилик саноати корхоналарини ривожлантириш стратегиялари: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс.автореф.-Тошкент, 2018.–152 б; Турсунов Б.О. Корхоналар фаолиятини бошқаришини такомillashtiriшда ишлаб чиқариш омилларидан самарали фойдаланиш (Тўқимачилик корхоналари ишлаб чиқариш кувватлари мисолида): Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс.автореф.-Тошкент, 2019.–54 б.

<sup>10</sup> Ризаев С.Р. Олмалиқ кон-металлургия комбинати. Янги тарихи ҳақида очерклар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.-225 б; Шу муаллиф. Государство и горно-металлургическая отрасль Узбекистана: гармония интересов, эффективное партнерство // O‘zbekiston konchilik xabarnomasi. – Navoiy, 2017.-№71.-B.97-105; Санакулов К. Научно-технические основы переработки горно-металлургического производства. – Ташкент: Фан, 2009. - 406 с.

tarmoqda yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning mohiyatiga tegishlicha baho berilgan<sup>11</sup>.

F.R.Jumaniyozova o‘zining tadqiqot ishida respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi tarkibiy o‘zgarishlar va yengil sanoat rivojlanishining iqtisodiy jihatlarini “O‘zbekengilsanoat” DAKning maxsus hisobotlari yordamida ochib berishga harakat qilgan<sup>12</sup>. Respublika sanoatining istiqlol yillarida modernizatsiya qilinishi, uning boshqa muhim turlari – yengil sanoat tarmoqlarini zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanishi hamda bu borada amalga oshirilgan sa’y-harakatlar, sanoat tarmog‘i rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari tadqiqotchilar D.G.Mamadjanov va N.S.Ashurmetovalar ilmiy maqolalarida aks ettirilgan<sup>13</sup>. Mustaqillik yillarida o‘lkada sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi jarayoni, ahamiyati masalalariga ahamiyat qaratilgan va bu borada olib borilgan faoliyatlar tahlil qilingan<sup>14</sup>. Mazkur guruhdagi tadqiqotlarda ham respublikadagi yengil sanoat korxonalari Farg‘ona viloyati kesimida, yaxlit tarzda tahlil qilinmagan.

**Uchinchi guruh** tarkibiga kirgan xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga yapon, amerikalik, shved olimlari tomonidan nashr

<sup>11</sup> Ортиков А. Саноат иқтисодиёти. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2009.- 326 б.

<sup>12</sup> Жуманийзова Ф.Р. Ўзбекистон Республикасида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг таркибий тузилишидаги ўзгаришлар ва енгил саноат таракқиёт одимлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар.–Тошкент, 2015.-№2. -Б.1-9.

<sup>13</sup> Мамаджанов Д.Г. Ўзбекистонда саноат тармоғи ривожланишининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – Тошкент, 2018. – №3. – Б.1-12; Ашурматова Н.С. Саноат тармоқларини модернизация қилишининг рақобатбардош иқтисодиётни шакллантиришдаги ўрни // Инновация: иқтисод ва фан. – Тошкент, 2019. – №1. -Б. 41-43.

<sup>14</sup> Зиёев Х. Чоризм ва паҳта яккаҳоқимлиги // Шарқ юлдузи, 1991, №5.; Бобобеков Ҳ. Кўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996. 103-б.; Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998.; Мусаев.Н. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан. – Тошкент: Иқтисод-молия нашриёти, 2011.; Шодмонова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1941 йиллар). – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2015. – 336 б.; Зияева Д. Ҳ. Ўзбекистон шаҳарлари XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида: шаҳар маданияти ва урбанизация жараёнлари. – Тошкент: Yangi nashr, 2017. – 440 б.; Бўриева М. Ўтмишдан нега кўп туғилиб, кам омон қолганмиз? // Фан ва турмуш. – 1993. №2.; Алимова Н. Туркистонда ипакчилик ва унинг иқтисодий ҳаётдаги ўрни (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент: Adabiyot uchsunlari, 2016. – 96 б.; Ҳайитов Ж.Ш. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши тарихи ва трансформацияси (1867-1917 йиллар). – Бухоро: “Sadreddin Salim Buxorii” Дурдона нашриёти, 2018. – 212 б. ва бошқалар.

qilingan ilmiy adabiyotlarda hamda ilmiy maqolalarda O‘zbekiston sanoati turlari, ularning iqtisodiyotdagi ulushi masalalariga qisman o‘rin ajratilgan. Jumladan, yaponiyalik tadqiqotchi Iwasaki Ichiro Markaziy Osiyo sanoati tuzilishi va uning hududiy taraqqiyotini 1991-1999 yillar davriy chegarasida misolida tadqiq qilgan<sup>15</sup>. Shveysariyalik tadqiqotchi D.Kandioti istiqlol yillarida Farg‘ona vodiysi qishloqlarida ishlab chiqarish korxonalarining barpo etilishi bilan bog‘liq jarayonlarni maxsus tarzda o‘rgangan. Tadqiqotchi vodiy qishloqlarda mahalliy to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish borasida hukumat tomonidan mikrokreditlar berish tizimining yo‘lga qo‘yilishi natijasida shahar va chekka qishloqlarda yengil sanoat mahsulotlari tayyorlash ishlarining tobora ommalashib borishi, trikotaj sexlarida yangi ish o‘rinlari yaratilishi esa o‘z navbatida bandlik masalalarini hududlarda hal qilinishini ilmiy jihatdan asoslab bergen<sup>16</sup>.

Amerikalik olimi Frederik Starr bosh muharrirligida nashr qilingan Farg‘ona vodiysi tarixiga bag‘ishlangan maxsus asarda respublikada sanoat sohasi turlarining rivojlanishi hamda taqsimlanishi ochib berilgan<sup>17</sup>. Asarda mamlakatlardagi ichki sanoat sohalari rivoji, korxonalarning ishlab chiqarish hajmining raqamlarda tobora ortib borishi davriy matbuot nashrlari va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar yordamida tahlil qilingan. Hind izlanuvchisi R.Kuparkarning monografik tadqiqotida Markaziy Osiyo respublikalari, jumladan, O‘zbekiston hukumati mamlakat bo‘ylab, qolaversa uning tarkibiy qismi bo‘lgan Farg‘ona vodiysining tegishli hududlarida bir qancha iqtisodiy zonalar yaratgani va butun dunyo bo‘ylab manfaatdor tomonlarni transport, infratuzilma, energetika, fan-texnika, qishloq xo‘jaligi va sanoat

---

<sup>15</sup> Iwasaki Ichiro. Industrial Structure and Regional Development in Central Asia: A Microdata Analysis on Spatial Allocation of Industry // Central Asian Survey. - United Kingdom, 2000. Volume 19, - №1. - p.157-158.

<sup>16</sup> Kandiyoti D.Post - Soviet Institutional Design, NGOs and Rural Livelihoods in Uzbekistan.–Geneva: UNRISD, 2004. -p.3.

<sup>17</sup> Ferghana valley: the heart of Central Asia / edited by S.Frederick Starr.-USA: Armonk, 2011.-p.235.

(yengil va og‘ir sanoat) kabi sohalarda ishlashga taklif qilganligi tadqiq etilgan<sup>18</sup>.

Muammoning tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlili shuni ko‘rsatib turibdiki, respublika va xorijda nashr qilingan hamda aynan O‘zbekiston sanoatini rivojlantirish tarixi, uning ustuvor yo‘nalishlari masalasiga bag‘ishlangan qator maxsus tadqiqotlarda ayrim sanoat tarmoqlari faoliyatining o‘zi xos jihatlarigina yoritilgan, xolos. Shu boisdan mazkur mavzu bo‘yicha maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish bugungi kunda ilmiy-amaliy ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Monografiya tadqiqotida 1946-1991 yillarda Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalari faoliyati tarixi hamda o‘ziga xos jihatlarini ochib berishdan iborat vazifalar belgilangan. Jumladan,

soviet hokimiyati yillarida Farg‘ona viloyati yengil sanoat korxonalarining vujudga kelishi tarixini atroflicha o‘rganish;

Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalari boshqaruvi tizimigi ko‘rsatib berish;

Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalari moddiy texnik ahvolini ko‘rsatib berish;

1946-19991 yillarda ngil sanoat korxonalaridagi kadrlar siyosati va uning o‘ziga xoslik mohiyatini ochib berish;

Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalari faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

Yengil sanoat korxonalari ishchi-xizmatchilarining moddiy ahvolini ko‘rsatib berish;

Farg‘ona viloyati yengil sanoat korxonalarini istiqbolda rivojlantirish hamda uning modernizatsiyasiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar ko‘zda tutilgan.

---

<sup>18</sup> Rashmini Koparkar. Issues and Dynamics of the Fergana Valley: Regional Implications.-New Delhi: Vivekananda International Foundation, 2019. – p.85.

Sovet hokimiyati yillarida rejali iqtisodiyotning hukm surishi oqibatida Farg‘ona viloyatida zamonaviy ishlab chiqarish usullarining yengil sanoat korxonalariga deyarli tatbiq etilmagani O‘zbekiston Milliy arxivi, Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyati davlat arxiv fondlari materiallari asosida ochib berilgan. Hamda, arxivlarda saqlanayotgan yengil sanoat sohasiga doir jamg‘armalardan va Ahmad Farg‘oniy nomli Farg‘ona viloyati axborot – resurs markazi, Farg‘ona davlat universiteti ARMdagi mavjud ilmiy adabiyotlardan korxonalar faoliyatiga doir yangi tarixiy ma’lumotlar olingan.

Farg‘ona viloyati yengil sanoat korxonalari faoliyati tarixiga oid materiallar davriy izchillikda, muammoli yondashuv asosida ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Hamda, uning yo‘nalishlari va muhim jihatlariga doir tegishli xulosalar hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, sovet hokimiyati yillarida iqtisodiy jabhadagi qonunlarning aksar hollarda ma’muriy – buyruqbozlik usuliga qaratilgani, kadrlar malakasi, tajribasi va ularning ishchanlik qobiliyatining talabga muvofiq emasligi asosli yoritib berilgan.

Monografiya natijalarining amaliy ahamiyati ishda ilgari surilgan takliflar, tavsiyalar va xulosalar mustaqillik yillarida respublika sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirishga oid hukumat dasturlarini bajarilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

O‘lkamiz tarixida sanoatni vujudga kelishi tarixiga doir ma’lumotlarni keltirib o‘tishni lozim topdik. Xususan, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasining katta qismini egallab olindi. Oqibatda, o‘lkada siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bir qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mustamlakachilar o‘zi istamagan holda o‘lkada tadbirkorlik, ishbilarmonlik va savdo-sotiq

ishlariga kengroq yo‘l ochib berishga majbur bo‘ldi. Oqibatda, o‘lkaning metropoliyaga qaramligi kuchayib, u imperiya savdo-sanoat burjuaziyasining xomashyo bazasi va tayyor mahsulotlarini sotish uchun beminnat bozorga aylanib bordi.

Rossiya imperiyasi savdo-sanoat kapitalining kirib kelishi o‘lkada mayda tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatini umumlashtirishga, qishloqlarda ijtimoiy tabaqalanishga, qishloq xo‘jaligining paxtachilikdan boshqa tarmoqlari mahsulotlarini ham tovarga aylantirish jarayonini tezlashtirishga doir bir qator tadbirlarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, qishloq xo‘jaligini yalpi rivojlanтирish va sanoat ishlab chiqarishni talab darajasiga ko‘tara olmadi.

Imperiya bosqini o‘lka qishloq xo‘jaligi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashgan tarmoqlarida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi. Metropoliyaning kapitalistik ishlab chiqarish usullari o‘z qobig‘iga o‘ralgan, yarim natural xo‘jalik yuritishga asoslangan ishlab chiqarish munosabatlariiga zarba bera boshladi. Biroq, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati o‘lkada to‘laqonli kapitalistik sanoat ishlab chiqarishini vujudga keltirishga imkon bermas edi. Shunga qaramasdan, o‘lkada dastlabka zavod va fabrikalar paydo bo‘la boshladi. Ularning vujudga kelishi va tadrijiy rivojlanishi tarixini ikki davrga bo‘lish mumkin. Birinchi davr – XIX asrning 60-90 yillarini o‘z ichiga olib, bunda dastlabki kapitalistik sanoat korxonalari vujudga keldi. Ikkinchi davr – XX asr boshlarini o‘z ichiga olib, bu davrda sanoat ishlab chiqarishi bir muncha rivoj topdi<sup>19</sup>. Birinchi davrda sanoat korxonalari ozchilikni tashkil qilib, ular mayda va kam quvvatli, ishchilari ham ozchilikni tashkil qilgan bo‘lsa, ikkinchi davrda korxonalar soni ko‘payib va yiriklashib borgan. Shuni ham ta’kidlash lozimki, nisbatan yirik korxonalar imperiya burjuaziyasi vakillariga tegishli bo‘lgan.

---

<sup>19</sup> Мусаев.Н. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан. – Тошкент: Иктисад-молия наширёти, 2011. – 52 б.

Turkiston sanoat korxonalarini qurish harakati 1865-yildan boshlangan. Bu yerga imperiya qo'shinlaridan keyin yetib kelishgan turli qatlam vakillari, jumladan, harbiylar, amaldorlar, savdogarlar ishbilarmonlar va boshqalar sanoat korxonalari qurish harakatlarini boshlagan. Ular yangi egallangan yerlarda turli korxonalar, savdo tarmoqlari ochishga ruxsat so'rab hukumatga murojaat qilgan. Masalan, Toshkentga kelishib bu yerda savdogarlar I.I.Pervushin va A.Xrennikovlar spirtli ichimliklardan katta daromad olish ilinjida 1867 yili 16-martda Orenburg general-gubernatoridan shaharda aroq va vino zavodlari ochishga ruxsat so'rashgan. Ulardan keyinroq kelgan barnaullik meshchi V.Ya Spiridov, savdogar V.P.Kuznetsov va oryollik dehqon Z.Bogdannikovlar Toshkent shahri band bo'lganini ko'rishgach, 1867 yilning yozida meva va uzumlari ko'p bo'lgan Xo'jand shahrida aroq va vino zavodlari ochishga ruxsat so'rab murojaat qilishgan<sup>20</sup>.

1867 yili Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidan keyin, Toshkent boshqa xususiy sanoat korxonalar ham ko'payib bordi. Shu yil 5 kishi (injener-texnolog N.V.Ulyanov, D.Kasyanov, I.Yablonskiy, N.P.Pisarevskiy, O.I.Plaviykiylar)dan iborat shirkat tomonidan Yevropa tipidagi birinchi suv tegirmoni ishga tushirildi. Tegirmon bir kecha-kunduzda 720 pud un chiqarar edi. Keyinchalik, bu tegirmon savdogar Xrennikov qo'liga o'tdi. 1868 yilda kapitan Kakurin shunday tegirmonning ikkinchisini ishga tushirdi. Shu yilda sanoatchi M.Xludov Salor arig'i bo'yida Yevropa tipidagi dastlabki ko'nchilik zavodini qurdi. 1874 yilda esa, Kuvaysev degan kishi ham shahar chetida shunday zavod qurdi. Biroq, bu zavodlar oddiy hunarmandchilik korxonalaridan deyarli farq qilmas edi. Ko'n zavodidan yaxshi daromad ololmagan Kuvaysev uni zavodda usta bo'lib ishlab kelgan Tezikovga sotdi. Tezikov tez orada zavodni kengaytirdi,

---

<sup>20</sup> Мусаев.Н. Туркистанда саноат ишлаб чиқаришининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан. – Тошкент: Иктисад-молия нашриёти, 2011. – 52 б.

uni o'sha davrning zamonaviy uskunalarini bilan jihozlab, ishlab chiqarishni ko'paytirdi va qisqa muddat ichida boyga aylandi<sup>21</sup>.

Ishbilarmonlar, birinchi navbatda o'z e'tiborlarini Turkistonda tanqis bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratdilar. Ayniqsa, aholining kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan gugurt, sovun, sham kabi ro'zg'or buyumlariga talab katta edi. Masalan, o'lkada gugurt ishlab chiqarilmagan uchun u chet eldan, asosan Rossiyadan keltirilgan. 1870 yil Salor arig'i buyidagi bir binoni sotib olib, sovun va sham zavodi qurgan savogar E.I.Chupin ishlab chiqargan mahsulotlari bilan qo'shin va gospitallarni ta'minlay boshladi. Zavod mahsulotlariga talab oshib boryotganligini ko'rgan E.Chupin zavodni kengaytirish uchun davlatdan 800 rubl' qarz so'rigan<sup>22</sup>. Biroq, u rad javobini oldi. Bu ma'lumotlar o'lkada kapitalistik bozor munosabatlarini rivojlantirishga hukumat hayrixox bo'limganligini ko'rsatadi.

1867 yildan boshlab, Turkistonda dastlabki hususiy ipak kalavalash fabrikalari paydo bo'ldi. Xususan, Turkiston o'lkasida 1867-1872 yillar davomida mexanik dastgohlari bo'lgan yettita pillakashlik fabrikalari ochilgan. Xususan, Toshkentda Pervushin<sup>23</sup>, Mixaylov va Gurde, Xo'jandda Xludov<sup>24</sup> va Zuev, Samarqandda Raevskiyarning pillakashlik fabrikalari shular jumlasidan edi. O'lkadagi Yevropa namunasi asosidagi birinchi pillakashlik fabrikasi Xo'jandda 1867 yilda ochilgan bo'lib, M.A.Xludovga tegishli edi. Fabrika dastlab Kripner sistemasidagi 23 ta mexanik dastgohlarga ega bo'lgan. Keyinroq mexanik dastgohlar soni 53 taga yetadi<sup>25</sup>. Ishchilar tarkibi turli yoshdagi mahalliy aholi vakillaridan iborat

<sup>21</sup> Зиёев Х. Чоризм ва пахта яккаҳоқимлиги // Шарқ ўлдузи, 1991, № 5.

<sup>22</sup> Мусаев.Н. Туркистанда саноат ишлаб чиқаришининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан. – Тошкент: Иктисад-молия нашриёти, 2011. – 55 б.

<sup>23</sup> Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент: Типолитография О.А.Порцева, 1912. – С.389.

<sup>24</sup> Исмоилова Ж. XIX аср иккинчи ярми — XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шахар” қисми тарихи. – Тошкент: Fan va tehnologiya, 2004. – Б. 48.

<sup>25</sup> Шелководство и шелкоматание в Средней Азии // Туркестанский сборник. Том 81. – С.133.

bo‘lib, ularning orasida bolalar ko‘pchilikni tashkil etgan edi. Ushbu fabrika 1869 yilda yopilgan bo‘lib, unda usta-hunarmandlarga kuniga 30 kopeekdan ish haqi to‘langan. Xo‘jandda 1869 yilning bahoridan Zuevning pillakashlik fabrikasi ishga tushib, o‘sha yilning oktabr oyida yopilgan. Bu yerda ishchilarga kuniga 30 kopeekdan ish haqi to‘langan, razmotnik<sup>26</sup>larning soni 6-10 nafar kishini tashkil etgan. Toshkentda 1871 yilning oxiridan 1872 yilning boshlarigacha 4 oy mobaynida faoliyat olib borgan Fisherning pillakashlik fabrikasida ish soati 10 soat bo‘lib, ishchilarga oyiga 10 rubldan ish haqi to‘langan. Ushbu fabrikaning mahalliy ishchilar tayyorlagan mahsulot namunalari Moskvaga jo‘natilgan. Moskvada ushbu mahsulotlarning har pudi 550 rubl baholangan. Mixaylov va Gurdelarning fabrikalarida ishlab chiqarilgan ipak namunalari Moskva politexnika ko‘rgazmasida namoyish etilib, pudi 420 rubldan baholangan va kumush medal bilan taqdirlangan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘lkada barpo etilgan dastlabki korxonalarning aksariyati pillakashlik fabrikalari edi. Biroq tayyorlangan yarim tayyor mahsulotdan ko‘ra, pillaning xomashyo tarzida sotilishi daromadliroq kechganligi bois, ushbu pillakashlik fabrikalar faoliyati to‘xtagan. Shuningdek, pilla xarid narxining yuqoriligi, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tomonidan ipak qurti urug‘iga talabning oshgani tufayli ham bu korxonalar yopilgan<sup>27</sup>. Lekin, o‘lkada xususiy ipak qurti urug‘i korxonalarining soni 1898 yildan boshlab yanada ortgan. Bularning eng yiriklari Qo‘qondagi Berte Mandalaki, Farg‘onadagi Yevtixidining urug‘chilik korxonalari edi<sup>28</sup>. Yangi Marg‘ilonda 1899 yili ipak qurti urug‘chiligi bo‘yicha mutaxassis Yevtixidi, 1901 yilda Qo‘qonda Berte

<sup>26</sup> Размотник-калава ипни чувувчи (Русча-ўзбекча луғат. – Тошкент, 1964. – Б. 309).

<sup>27</sup> ЎзР МДА, Р.132-фонд, 1-рўйхат, 17-иш, 3-варак.

<sup>28</sup> Ўзбекистон халқлари тарихи музейида 1898 йили Қўконда ипак қурти тухуми тайёрлайдиган корхона тузилганилиги хақидаги Мандалаки номига берилган хужжат сакланмоқда – муаллиф.

Mandalaki, Eliftariadilar tomonidan xususiy qurt urug‘i korxonalari ochildi<sup>29</sup>.

Farg‘ona viloyatida 1901 yilda 7 ta, 1907 yilda 9 ta qurt urug‘chiligi korxonalari faoliyat olib borgan. Jumladan, Skobelevda (Farg‘ona) 3 ta, Marg‘ilonda 2 ta, Qo‘qonda 2 ta (Mandalaki, Elifteriadi), Namanganda 2 ta (Chustda – Soteriadi, Namanganda – Ishxanov<sup>30</sup>) bo‘lib, ularga 1914 yilda yana 2 ta korxona qo‘shilgan<sup>31</sup>. Jami Turkistonda 1913-1914 yillarda ipak qurti urug‘i tayyorlaydigan korxonalar soni 11 taga yetdi, ulardagi ishchilar soni 1117 nafar kishini, pillaxonalar soni esa 31 tani va ulardagi ishchilarning soni 2500 nafarni va tayyorlangan ipak qurti urug‘ining miqdori 130 ming qutini tashkil etgan<sup>32</sup>.

XIX asr oxirlaridan boshlab hukumat tomonidan o‘lkada yengil sanoat korxonalari sirasiga kiruvchi - pilla quritish korxonalari barpo etishga ham e’tibor kuchaydi. Yangi tipdagi dastlabki pilla quritish korxonalari 1898 yili Yangi Marg‘ilon (Farg‘ona)da tashkil etildi. 1907 yilda Marg‘ilon uezdida bunday korxonalarning 5 tasi, 1908 yilda Qo‘qon uezdida yana 5 tasi ishga tushirildi. Oshib borayotgan talabga qarab pilla quritish korxonalari tobora ko‘payib bordi. Farg‘ona viloyatida 1913 yilda ularning soni 27 tani, Samarqandda esa 1 tani tashkil etgan<sup>33</sup>. 1910-1914 yillar davomida yana 6 ta pilla quritish korxonalari ochilgan edi. 1914 yilga kelib o‘lkada 28 ta pilla quritish korxonasi bor edi. Ularning asosiy qismi Farg‘ona viloyatida joylashgan edi. Bu korxonalarning umumiyl ishlab chiqarish hajmi 1913 yilda 3136814 rublni tashkil etdi. Ushbu muassasalar asosan temir yo‘l stansiyalari yaqiniga joylashgan edi. Ularda mehnat qilgan ishchilarning

<sup>29</sup> Ежегодник Ферганской области. – Новый Маргелан, 1902. – С. 177,178.; Сельское хозяйство в Туркестанском крае. Составитель: А.И. Шахназаров. – СП, 1908. – С. 379.

<sup>30</sup> Ежегодник Ферганской области. – Новый Маргелан,1902. – С. 178

<sup>31</sup> Заорская В.В., Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. – Петроград., 1915 – С.205.

<sup>32</sup> ЎзР МДА, Р.27 - фонд, 1-рўйхат, 764-иш, 551-552-вараклар

<sup>33</sup> Заорская В.В., Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. – Петроград, 1915. – С.182.

soni 50-100 nafargacha bo‘lgan, faqat pilla quritish muassasalarining 9 tasida 50 nafar, 2 tasida esa ishchilar soni 200 nafarni tashkil etgan. Ishchilar tarkibini ko‘proq – 56,5 foizini mahalliy xotin-qizlar tashkil qilgan. Pilla quritish muassasalarida hammasi bo‘lib 2198 nafar ishchi ishlagan<sup>34</sup>. Turkiston pilla quritish korxonalari ishlab chiqargan mahsulotlar Rossiyaning markaziy guberniyalari va xorijiy davlatlarga jo‘natilgan.

XIX asr oxirida o‘lkada mahalliy sanoat rivojiana boshladi. U Rossiya imperiyasi sanoatining agrar-xomashyo bo‘g‘ini sifatida sof mustamlaka xususiyatiga ega edi. Korxonalarining 70 foizini paxta tozalash sanoati, 7 foizini moy ishlab chiqarish korxonalari, 5 foizini oziq-ovqat sanoati tashkil etardi. Sanoat o‘ta zaif rivojlangan, ayni mahalda u bir yoqlama xususiyatga ega bo‘lib, asosan Rossiya imperiyasi ehtiyojlari uchun xizmat qilgan<sup>35</sup>.

Imperiya kapitali Turkistonni o‘z sanoat mollarini sotadigan monopol bozorga aylantirib, uni jahon bozoriga jalgan etdi, biroq Rossiya markaziy guberniyalaridan tovarlarining keltirilishi asrlar davomida mavjud bo‘lgan mahalliy hunarmandchilikni siqib chiqardi. Boshqa tomondan Rossiya kapitali Turkistonning metropoliyaga qaramligini kuchaytirish uchun ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qildi.

Shunday qilib, Rossiya kapitali mustamlaka xo‘jalikka yangi bozor munosabatlarini joriy etib, Turkiston xo‘jaligining natural shaklini, uning biqiqligini buzdi.

Mavjud vaziyat hunarmandlarni bozor ehtiyojlarini o‘rganish zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashishga majbur qildi. Natijada, o‘lkaning yirik shaharlarida mahalliy kiyimlar tikish, gilom, sholcha to‘qish, zargarlik buyumlari, dehqonchilik qurollari, qulolchilik va uy-ro‘zg‘or buyumlari, shuningdek, egar-jabduqlar yasashga e’tibor kuchaytirildi.

<sup>34</sup> Заорская В.В., Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. – Петроград, 1915. – С.185 – 197.

<sup>35</sup> Шарафиддинов А., Н.Алимова Фарғона водийси Чор Россияси мустасмлакачилиги даврида. – Фарғона, 2011. – 67 б.

Imreriya qo'shinlari Turkistonga bostirib kirgandan keyin, oradan o'tgan 10 yil ichida, vaziyatga moslashgan mahalliy boylar ham turli sanoat korxonalari qura boshladi. O'lkadagi zavod-fabrikalarning faoliyatida mahalliy boylarning nomlari ham tez-tez tilga olingan. Masalan, Chimkentda mahaliy boylarga tegishli g'isht zavodlaridan keyin, ko'n zavodlari ishga tushdi.

O'lkada tashkil etilgan boshqa sanoat korxonalariga nisbatan aroq, pivo va g'isht zavodlar raqobatga chidamli va samarali bo'lib chiqdr. Arzon xomashyoning mavjudligi va iste'molchilarining muntazam ortib borishi, mahalliy boylarda aroq va pivo zavodlari bilan raqobat qiluvchi korxonalarning yo'qligi, bu zavodlarning erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratdi.

Turkiston uezidida mahalliy sanoat tarmoqlari yo'lga qo'yila boshlagan bo'lsa-da biroq ular hali zavod va fabrikalar darajasiga ko'tarilmagan edi. Chimkent uezdida 6 ta g'isht, 4 ta ko'n, 5 ta yog' zavodlari v 13 ta mahalliy kulolchilik korxonalari bo'lgan.

Shuningdek, 1877-yil S.I.Laxtining paxta tozalash, don yanchish, karton zavodlari va tipografiyasining bir yillik daromadi 193 750 rublni tashkil etgan. 1881 yilda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida Toshkent paxta tozalash zavodlarida dastlabki 6 ta jin (paxta tozalash dastgohi) o'rnatildi. Paxta zavodlari qurilishiga Samarqand viloyatida ham e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, viloyat hududidan temir yo'l o'tkazilishi sanoat korxonalari qurash imkoniyatini ancha kengaytirdi. 1886 yil knyaz Tinxachev tomonidan Kattaqo'rg'on uezdining paxta ko'p ekiladigan Mitan qishlog'ida birinchi paxta zavodi qurildi<sup>36</sup>.

Paxta etishtirishning ko'payishi tufayli, 1889 yil Kattaqo'rg'on shahrining vokzali yaqinida injener L.O.Yugovich tomonidan 4 ta jin

<sup>36</sup> Зиёев Х. Чоризм ва пахта яккахокимлиги // Шарқ ўлдузи, 1991, №5.

o‘rnatilgan va bug‘ bilan ishlaydigan paxta tozalash zavodi qurildi. Paxtaga bo‘lgan talabning oshib borishiga qarab, ikkala zavod ham takomillashtirib borildi. Bu esa, o‘z navbatida, qo‘sishimcha sarf-harajatlarni talabni qilar edi. Ortiqcha harajatlarga bardosh bera olmagan Tinxachev zavodini buxorolik savdogar Mirhikmat Mirsolihovga sotib yubordi. Zavodning yangi egasi uni qayta jihozlab qo‘sishimcha bug‘ dvigateli o‘rnatgandan keyin u yanada ko‘proq foyda keltira boshladi.

O‘lkada dastlabki yog‘ zavodi K.K.Drjevetskiy tomonidan Yangi Buxoro (Kogon)da qurildi. Biroq, bu zavodning aholidan chigit yig‘ib olish imkoniyati chelanganligi, ayniqsa, mahalliy aholining g‘ayridinlar tomonidan sanoat usulida tayyorlangan yog‘ni iste’mol qilishni istamasliklari tufayli mahsulot sotilmay qola boshladi. Zavod mablag‘ etishmasligi oqibatida to‘xtab qoldi. Shuningdek, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida qurilgan yog‘ zavodlari Marvda Petrosyan tomonidan qurilgan yog‘ zavodi ham zarar ko‘rib ishlagan. Shundan keyin, bu zavodlarning egalari tayyorlangan yog‘larni Rossiyaning markaziy rayonlariga sotish harakatiga tushdilar. Bu harakat ularga yaxshigina daromad keltira boshladi. Shunday qilib, Turiston sanoat ishlab chiqarishida dastlab turli sohalarga o‘zlarini urishgan kapitalistlar, savdogarlar va boshqa ishbilarmonlar keyinchalik faqat katta va muntazam foyda keltiradigan tarmoqlarga e’tiborlarini qarata boshladilar.

Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati, o‘lkada yirik sanoat korxonalari vujudga keltirilishiga qarshi qaratilgan edi. Ayniqsa, o‘lkada mahalliy ishchilarining ko‘payishi imperianing mustamlakachilik siyosati uchun xavfli edi. Imperiya hukumati ataylab o‘lkada sanoatning, birinchi navbatda, og‘ir sanoatning rivojlanishiga yo‘l bermadi. O‘rta Osiyo imperianing kapitalistlari zavod va fabrikalari uchun xomashyo bazasi sifatida kuch bilan ushlab turildi. Mustamlakaga aylantirilgan Turkistonda

xomashyo ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, birorta ham to‘qimachilik fabrikasi qurilmadi. Imperianing o‘lkada sanoat ishlab chiqarishga doir mustamlakachilik siyosatining mohiyatini 1909 yilda Turkiston general-gubernatori lavozimida ishlagan A.V.Samsonovning so‘zлari yanada oydinlashtiradi: U “Paxtani qayta ishlash bo‘yicha yangi, Turkiston fabrika-zavodchilik rayonini vujudga keltirish, birinchidan, har yili 11 mln. pud Turkiston paxtasini Rossiyaning Yevropa qismiga etkazib berayotgan va u yoqdan Turkistonga manufaktura mahsulotlarini tashib keltirayotgan har ikkala temir yo‘lga katta zarar keltiradi; ikkinchidan, eng asosiysi, Moskva fabrika-zavodchilik rayonida qayta ishlanishi lozim bo‘lgan paxtani Turkiston hududida qoldirilishi, ularga O‘rta Osiyo va Fors bozorlarida o‘zlarining ancha arzon mahaliy mahsulotlarini sotishga imkon berib, Moskva manufaktura firmalari savdosini barbod qilishi mumkin”, - deb yozgan edi<sup>37</sup>. Biroq, mustamlakachi hukumat qanchalik harakat qilmasin, Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini to‘xtatib qola olmadi. Turkiston o‘zining ishlab turgan va qurilayotgan zavod-fabrikalari, hunarmandchilik korxonalarining soni jihatidan imperianing ko‘pgina markaziy viloyatlaridan ham ilgarilab ketdi.

O‘lkada asosiy e’tibor paxta tozalash sanoatiga qaratilib, etishtirilgan paxtaning katta qismi zavodlarda, qisman eski usulda mahalliy korxonalarda tozalangan. Paxta tozalash zavodlaridan keyin ko‘nchilik, ipakchilik, yog‘, aroq-vino, sovun va sham tayyorlash, tamakichilik, tegirmonchilikka, shuningdek, qurilish materiallarga ishlab chiqarishga e’tibor kuchaydi.

O‘lkada sanoat ishlab chiqarishi jarayonining o‘sib borishi, ayniqsa Farg‘ona viloyatida yaqqol ko‘zga tashlandi. 1880 yilda viloyatda 3 ta sanoat korxonasi bo‘lsa, 1890 yil ularning soni 15 taga, 1900 yili 50 taga

---

<sup>37</sup> Мусаев.Н. Туркистанда саноат ишлаб чиқаришининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан. – Тошкент: Иктисад-молия нашриёти, 2011. – 60 б.

etgan. Biroq, bu korxonalar tabiiy xomashyolarga boy bo‘lgan o‘lka uchun hali yetarli emas edi.

O‘lkada sanoat ishlab chiqarishi va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi mahalliy aholining turmush tarziga ham jiddiy o‘zgarishlar kiritdi. Rossiyaning markaziy rayonlaridan sifatli mahsulotlarning keltirilishi natijasida bozori kasod bo‘lgan hunarmandlar o‘z kasblarini o‘zgartirishga majbur bo‘ldilar.

## **I bob. Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalarining vujudga kelishi va boshqaruv tizimi**

### **1.1. Sovet yillarida Farg‘ona viloyati yengil sanoat korxonalarining vujudga kelishi tarixi**

Zamonaviy rivojlanish bosqichida dunyo davlatlari iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga, jumladan sanoat korxonalari uchun muhim xomashyo – tabiiy ipak, paxta tola yetishtirishga katta e’tibor bermoqda. Jahon mamlakatlarida ipak va paxta mahsulotlari tayyorlashda raqobatlasha oladigan tizimni vujudga keltirish, tabiiy tola yetishtirishning yanada samarali usullarini amalda qo’llash va soha infrastrukturasini takomillashtirish, ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, sohada eksport salohiyatini yuksaltirish masalalarining ahamiyati tobora ortmoqda.

Tabiiy tola yetishtirish ancha rivoj topgan Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya, Vietnam kabi mamlakatlarda ayni jarayonlar dolzarb masalalarga aylangan. Bugungi kunda agrotexnik tadbirdan unumli foydalanish, tabiiy tolalar sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha innovatsiyalarni tatbiq qilish, sanoat korxonalarini sifatli xomashyosi bilan ta’minlash tarmoqning muhim vazifalari sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda, xususan Farg‘ona viloyatida yengil sanoat korxonalari eng muhim tarmoqlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Sohani rivojlantirish maqsadida o‘tgan yillar mobaynida tarmoqning zamonaviy moddiy-texnik bazasi shakllandi, sanoat korxonalari tizimi mutlaqo o‘zgardi. Shuningdek, tizimda o‘zaro tajriba almashish uchun xalqaro hamkorlikka keng yo‘l ochib berildi.

Bugungi kunda yengil sanoatga chet el investitsiyalarini jalb qilish, xomashyoni qayta ishslash, jahon bozorida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va uni eksport qilishni ko‘paytirish bo‘yicha

muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Yengil sanoat sohasi samardorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda insoniyat hayoti va faoliyatini to‘qimachilik sohasisiz tasavvur qilish qiyin. So‘nggi yillarda olimlarning ilmiy izlanishlari, arxeologik qazishmalari, qadimiy nodir manbalarni chuqur o‘rganish asosida to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talab asrlar mobaynida mavjud bo‘lganligi, hamda muntazam ehtiyoj ortib borganligiga guvoh bo‘lish mumkin. To‘qimachilik mahsulotlarini tayyorlash juda uzoq tarixga borib taqaladi.

To‘qimachilik – yengil sanoatning tabiiy va sun’iy tolalardan turli gazlama, ip va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan yirik tarmog‘i hisoblanadi. To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. To‘qimachilik sanoati o‘z tarkibiga tabiiy tolalar – paxta, ipak, jun, zig‘ir, jut, sun’iy tolalar-nitron, kapron, lavsan, viskoza, atsetat, shuningdek, sun’iy charmdan ip yigirish va to‘qish orqali turli xil charmlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni birlashtiradi.

O‘zbekistonda to‘qimachilik korxonalari faoliyatining vujudgakelishida XX asrning 30-yillarida qurib ishga tushirilgan Farg‘ona va Toshkent to‘qimachilik kombinatlari alohida o‘rin tutadi.

O‘lkada sovet hokimiyati o‘rnatilganidan so‘ng, barcha sohalarda bo‘lgani kabi sanoat tarmoqlarida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, 1928-1932 yillar O‘zbekiston sanoat sohasi uchun o‘ziga xos davr bo‘ldi. Jumladan, kichik tarqoq hunarmandchiliklarni birlashtirilib, sanoat asosida mahsulot ishlab chiqarish tashkil etilishi boshlandi. Davlatga qarashli zavod va fabrikalar keng iste’mol mollarini yetkazib berishga yo‘naltirildi. Ayni yillarda O‘zbekistonda 300 dan ortiq sanoat korxonalari barpo etildi. Xususan, Farg‘ona to‘qimachilik fabrikasi dastlab 1926-yildan ishlay boshladi.

1930 yilda Marg‘ilon ipakchilik fabrikasi 3500 nafar ishchiga ega bo‘lib, 203,5 tonna ipak xomashyosi qayta ishlangan<sup>38</sup>. II jahon urushi yillarida to‘quv fabrikalarining uskunalari evakuvatsiya qilingani va to‘quv stanoklari soni 500 taga yetkazilgani sababli 1942 yildaushbu fabrika kombinatga aylantirilgan<sup>39</sup>. 1952 yilda amalga oshirilgan ta’mirlash jarayonida yanada kengaytirilgan<sup>40</sup>. 1957 yilda Marg‘ilon ipakchilik kombinatida 8,6 mln metr ipak ishlab chiqarilgan<sup>41</sup>. Shuningdek, 1957 yili kombinatning birinchi sexning alohida brigada ishchilari tomonidan 732 kg yuqori navli pilla tejab qolingan<sup>42</sup>. Marg‘ilon ipakchilik kombinati tomonidan 1946 yilda – 36 434, 1950 yilda – 47 865, 1958 yilda – 70888rublik mahsulot ishlab chiqarilgan<sup>43</sup>.

Hukumat talabi asosida xomashyoni o‘lkada qayta ishlash yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, ipak xomashyosi bo‘lgan - pillani qayta ishlovchi pillakashlik fabrikalari o‘z faoliyatini boshlagan. Xususan, dastlabki ipak yigiruv Farg‘ona pillakashlik fabrikasi (56 qozonli) 921 yil sentabrda barpo etilgan . 1925 yilga kelib ushbu fabrika faoliyati kengaytirilib, asbob-uskunalari takomillashtirildi. Jumladan, pillakashlik fabrikasidagi mavjud qozonlar soni 95 taga yetkazildi. 1935 yilga kelib esa, Farg‘onadagi ushbu muassasa 176 qozonli pillakashlik fabrikasi sifatida samarali faoliyat olib bordi. Farg‘ona pillakashlik fabrikasi 1935 yilda 5,5 tonna ipak xomashyosini qayta ishlagan.

<sup>38</sup> Зименко В., Кириленко В. Маргиланский шелк. – Ташкент, 1959. – С. 5.

<sup>39</sup> УзР МДА, Р.88-фонд, 9-рўйхат, 5626-иш, 4-варак.; Экономическая история советского Узбекистана (1917-1965 гг.) – Ташкент: Фан, 1966. – С. 163, 172.

<sup>40</sup> Тухтасинов И., Королев И. Маргиланский шелковый. – Ташкент, 1976. С. 7-15.

<sup>41</sup> Якубова У. Как я работаю на шелкоткацких станках (Рассказы новаторов. Ткачиха Маргеланского шелкомбината Узбекская ССР). – Москва: ВЦСПС Профиздат, 1958. – С. 3.

<sup>42</sup> Новатор Маргеланской кокономотальной фабр, Р.9-фонд, 1-рўйхат, 1166-иш, 20-варак.

<sup>42</sup> БВДА, 500-фонд, 1-рўйхат, 39- иш, 3-варак.

<sup>42</sup> Зименко В., Кириленко В. Маргиланский шелк. – Ташкент, 1959. – С. 5.

<sup>42</sup> УзР МДА, Р.88-фонд, 9-рўйхат, 5626-иш, 4-варак.; Экономическая история советского Узбекистана (1917-1965 гг.) – Ташкент: Фан, 1966. – С. 163, 172.

<sup>42</sup> Тухтасинов И., Королев И. Маргиланский шелковый. – Ташкент, 1976. С. 7-15.

<sup>42</sup> Якубова У. Как я работаю на шелкоткацких станках (Рассказы новаторов. Ткачиха Маргеланского ики Х.С. Абдуллаев (Составитель: С.Л. Цейтлин). – Ленинград, 1958. – С. 12.

<sup>43</sup> Зименко В., Кириленко В. Маргиланский шелк. – Ташкент, 1959. – С.15.

1933 - 1937 yillarda Farg‘ona, Marg‘ilon ipakchilik fabrikalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan[6].

Yaqin o‘tmish, sovet hokiyati yillarida yengil sanoat korxonalarini tarmog‘iga katta e’tibor qaratilgan. Chunki, o‘lkada yetishtirilgan paxta va ipak xomashyosi birlamchi qayta ishlanishi zarur edi. O‘zSSRning deyarli barcha hududlari xomashyo yetishtirishga moslashtirilgan. Ayniqsa, Farg‘ona viloyatida mavjud sanoat korxonalariga xomashyo yetishtirish bo‘yicha yetakchi hududlardan biri hisoblangan. Natijada, hukumat tomonidan deyarli xomashyo yetishtiruvchi hududlarda sanoat korxonalarini barpo qilingan. Xususan, o‘lkada 1915-1950 yillar davomida 337 ta yirik sanoat korxonalarini qurilgan. Amalda sovetlarning sanoatlashtirish (indisturlashtirish) siyosati (1925 yil) ham sohada jadal o‘zgarishlarni namoyon etgan. O‘zbekiston SSR sanoatlashgan respublikaga aylanib borgan.

O‘zbekiston SSR ixtisoslashuvga ko‘ra dastlab 4 ta iqtisodiy ma’muriy rayonga – Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Qoraqalpog‘iston ajratilgan<sup>44</sup>. Urushdan keyingi yillarda respublikada 150 dan ortiq sanoat korxonalarini ishga tushirildi. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, sanoat korxonalarini qurilishining, yangi konlarning o‘zlashtirilishi, respublika manfaatlarining mamlakat manfaatlariga bog‘lanib borishi natijasida umum davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi sohalarni kengaytirishni talab etib bora boshladи.

O‘zbekiston SSR da sanoatning barcha sohalari, jumladan, yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortdi. Natijada, yengil sanoat korxonalarini uskunalar bilan ta’minlash, kengaytirishga

---

<sup>44</sup> Бедринцев К., Кравец Ф. Фарғона иқтисодий маъмурий райони // Қизил Ўзбекистон. 1957 йил 8 июнь.

e'tibor qaratildi. Shu o'rinda, Farg'ona viloyatida ham yengil sanoati tarmog'i faoliyati tez sur'at bilan o'sdi<sup>45</sup>.

Farg'ona viloyatida joylashgan yengil sanoat korxonalarida paxta tolasi, xom ipak iplari, paxta matolari, paypoq mahsulotlari, ichki kiyimlar, ust-bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar ishlab chiqarilgan<sup>46</sup>. Jumladan, Farg'ona viloyatiengil sanoat korxonalarining asosiy tarmoqlari ham paxta tozalash, pillakashlik, ip-gazlama, ipakchilik, trikotaj hisoblangan<sup>47</sup>. Yengil sanoat sohasidan kelayotgan daromad, tarmoqni yanada kengayishiga zamin yaratdi. Natijada, 1946-1950 yillar mobaynida O'zSSRda 250 ta yirik sanoat korxonalari ishga tushirildi<sup>48</sup>. Ayni ko'rsatkichning ko'pgina miqdori ham Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan.

1970 yilda O'zbekiston SSRda jami 1172 tonna ipak xomashyosini ishlab chiqargan bo'lsa, shundan 767 tonnasi Farg'ona viloyati tomonidan tayyorlangan. Shuningdek, 1982 yilda O'zbekiston SSRda jami 1864 tonna ipak xomashyosini ishlab chiqargan bo'lsa, shundan 879 tonnasi Farg'ona viloyati tomonidan tayyorlangan<sup>49</sup>. Sovet hokimiyyati yillarda ipak xomashyosini ishlab chiqarish borasida Farg'ona viloyati muntazam yetakchilik qilgan.

Ayni paytda, pillakashlik fabrikalarida olingan ipak toladan shoyi matolar to'qish, ya'ni tayyor mahsulot yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 1925 yilda Marg'ilon atlas fabrikasi, 1926 yilda Qo'qonda, 1928 yilda Marg'ilon shoyi to'qish fabrikalari ishga tushirilgan.

Shoyi gazlamalar 1937 yilga qadar tabiiy ipakdan tayyorlangan. Keyinchalik kimyo sanoatining rivojlanishi natijasida sun'iy ipak gazlamalar to'qish ham keng taraqqiy etgan.

<sup>45</sup> Акрамов З.М. Фарғона водийси. – Тошкент, 1957.Б.46.

<sup>46</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987г. – Т.:Узбекистан,1988.-343с.

<sup>47</sup> Акрамов З.М.Фарғона водийси. – Тошкент, 1957.

<sup>48</sup> e-tarix.uz/vatan tarixi.

<sup>49</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР в 1968 г. Стат. ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – С.75.

Masalan, 1960 yilda 24062 ming metr uzunlikdagi (тысыач pogonnyx metrov) shoyi matolar ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan 12010 ming metr uzunlikdagisi tabiiy ipakdan, 12052 ming metr uzunlikdagisi sun'iy ipakdan tayyorlangan. 1968 yilda 46369 ming ming metr uzunlikdagi shoyi matolar ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan 16197 ming metr uzunlikdagisi tabiiy ipakdan, 28814 ming metr uzunlikdagisi sun'iy ipakdan, 1358 ming metr uzunlikdagisi sintetik ipakdan tayyorlangan<sup>50</sup>.

Ishlab chiqarishda mexanizatsiyalashgan jarayonlar 1963-1970 yillarda 10,1 foizga o'sgan. Ipak matolarni ishlab chiqarishning deyarli 95 foizi Farg'ona, Samarcand va Namangan viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan<sup>51</sup>.

1955 yil iyulda Marg'ilon ipakchilik kombinati rejadagi – 684000 metr o'rniga, amalda – 686511 metr tayyor ipak matolar ishlab chiqargan, Qo'qon fabrikasida esa, rejadagi – 336067 metr o'rniga, amalda – 259058 metr, «Ipakchilik bosh boshqarmasi» esa rejadagi – 1020067 metr o'rniga, amalda – 9455569 metr tayyor ipak matolar ishlab chiqargan<sup>52</sup>. Respublika fabrikalarida 1950-yillarda davlat rejali amalda bajarilmagan.

1960–1965 yillarda O'zbekistonda ipak ishlab chiqarish hajmi 1,7 foiz o'sdi va 1970 yilda 1960 yilga nisbatan 3,9 foiz o'sdi<sup>53</sup>.

Ipak ishlab chiqarishda asosiy ishlab chiqarish fondlari 1965-1970 yillarda artel tizimidagi bir necha sexlarning birlashishi hisobiga intensiv rivojlanish yo'liga o'tdi (Masalan, 1962 yilda Marg'ilon «Atlas» firmasi, 1972 yilda «Yodgorlik» korxonasi faoliyatini boshlagan)<sup>54</sup>.

Ipakchilik sanoatida korxonalar shoyi gazlamalar turlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashdi, korxonalarda krepdeshin, krepshifon,

<sup>50</sup>Народное хозяйство Узбекской ССР в 1982 г. Стат. ежегодник.– Ташкент: Узбекистан, 1983. – С.59.

<sup>51</sup>Искандеров И. Текстильная промышленность Узбекистана. – Ташкент, 1974. – С.74, 78.

<sup>52</sup>ЎзР МДА, Р.2163-фонд, 1-рўйхат, 455-иш, 1-варақ.

<sup>53</sup>Искандеров И. Текстильная промышленность Узбекистана. – Ташкент, 1974. – С.63.

<sup>54</sup>Шелк Узбекистана. Гл. Редактор Н.А.Кривоносова. Ташкент: Узбекистан, 1970. – С.194.

kreplorjet, ipakdan milliy gazlamalar: atlas, xonatlas, beqasam, shoyi, shuningdek, plashbop, kostyumbop, astarbop gazlamalar, shtapel, viskoza va aralash tolalardan kiyim-kechak tikiladigan gazlamalar, tukli va jakkard gazlamalar, sun'iy iplardan abrli gazlamalar ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

Ipakchilik sanoati mahsulotlari chet ellarga eksport qilingan. Bundan tashqari, Samarqand to'quv fabrikasida ham shoyi matolar tayyorlangan.

Jumladan, ushbu fabrikada 1968 yil 4-chorak (kvartal)da jami 15000 metr krepdeshin, 259000 metr atlas ishlab chiqarilgan<sup>55</sup>. Namangandagi ipak to'quv fabrikasida 1969 yili 600 ta sovg'a uchun (suvenir) tayyorlangan atlaslar ishlab chiqilgan<sup>56</sup>.

## 12-jadval

### 1940-1980 yillarda O'zbekiston SSRda tayyorlangan ipak matolar hajmi<sup>57</sup>

Yillar	Tayyorlangan ipak matolar hajmi (ming metr uzunlik hisobida)
1940	4 534
1950	8 686
1960	24 062
1965	37 777
1970	50 358
1975	94 230
1980	116 585

Jadvalda kuzatilganidek, respublika korxonalarida ipak matolar ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortgan. 1940 yilda O'zbekiston SSR bo'yicha

<sup>55</sup>ЎзР МДА, Р.2675-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 12-варак.

<sup>56</sup>ЎзР МДА, Р.2675-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 13-варак.

<sup>57</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР в 1968 г. Стат. ежегодник.– Ташкент: Узбекистан, 1970. – С.75. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1982 г. Стат. ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1983. – С.61.

ishlab chiqarilgan ipak matolarning 2296 ming metr uzunlikdagi hajmi Farg‘ona viloyatiga, 854 ming metr uzunlikdagi hajmi Samarqand viloyatiga, 647 ming metr uzunlikdagi hajmi Namangan viloyatiga to‘g‘ri kelgan. 1970 yilda O‘zbekiston SSR bo‘yicha ishlab chiqarilgan ipak matolarning 36 236 ming metr uzunlikdagi hajmi Farg‘ona viloyatiga, 10 352 ming metr uzunlikdagi hajmi Samarqand viloyatiga, 3 711 ming metr uzunlikdagi hajmi Namangan viloyatiga tayyorlangan edi. Yuqoridagi jadvaldagi respublika ko‘rsatkichlariga viloyatlar bo‘yicha natijalar taqqoslansa, eng ko‘p ishlab chiqarish hajmi Farg‘ona viloyatiga, keyin esa Samarqand va Namangan viloyatlariga tegishli ekanligi ko‘rinadi.

Respublikada 1980-yillarga kelib, ipak ip ishlab chiqarish 1711 tonnani tashkil etdi, 113,8 mln metr kvadrat shoyi gazlamalar ishlab chiqarildi. 1984 yilda respublika pillachilik fabrikalarida keskin ipak xomashyosi sifatini pasayishi kuzatilgan<sup>58</sup>. Natijada xomashyoning ko‘pgina qismi chiqitga chiqarilib, mahsulot hajmini kamayishiga olib kelgan<sup>59</sup>. Respublikada 1988 yilda 138 mln kv metr shoyi gazlamalar ishlab chiqarilgan. 1988 yilda kooperativlar (kooperativ-xo‘jalik faoliyatidan daromad oladigan uyushma va birlashmalar) soni ham oshib borgan<sup>60</sup>. 1989 yilning birinchi yarmida respublikada 71,6 mln kv metr shoyi gazlamalar ishlab chiqarilgan<sup>61</sup>. Respublikada 1990yilga kelib ipakchilik sanoatida 2522 tonna ipak ip, 144,2 mlnmetr kvadrat shoyi gazmollar ishlab chiqarildi.

1987-yilga kelib esa, O‘zbekiston SSR da yengil sanoat korxonalari soni 362 taga yetdi. Farg‘ona viloyati kesimida esa 56 tani tashkil etgan<sup>62</sup>.

O‘zbekiston SSRda yengil sanoat korxonalari tomonidan 1940-yilda 534,4 ming tonna, 1960-yilda 1063,8 ming tonna, 1970-yilda 1383,8 ming tonna, 1980-yilda 1745,3 ming tonnani paxta tolasi qayta ishlangan. Ishlab

<sup>58</sup>СВДА, 494-фонд, 1-рўйхат, 37-иш, 1-варақ.

<sup>59</sup>СВДА, 494-фонд, 1-рўйхат, 35-иш, 1-варақ.

<sup>60</sup>Совет Ўзбекистони. – 1988. – 31 январь. – № 25 (20.292)

<sup>61</sup>Экономикани қайта қуриш йўлидан // Совет Ўзбекистони. – 1989. – 5 август. – №181 (20.448).

<sup>62</sup>Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 г. – Т.:Узбекистан,1988.